

УО'К: 553.9

doi 10.5281/zenodo.13764623

**BUXORO-XIVA REGIONINING MARKAZIY QISMDA MEZOZOY-  
KAYNOZOY TARIXINING TURLI BOSQICHLARIDA HOSIL BO'LGAN  
LOKAL TUZILMALARNING YOSHI VA MAKONDAGI  
MUNOSABATLARINI RUTBALI PALEOTEKTONIK TAHLILI**



*Akhmedov Xolxo'ja Raxmatullaevich*

(PhD) Qarshi muhandislik-iqtisodiyot Instituti Qarshi, O'zbekiston

E-mail: ahmexolxoja@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-7715-7240

**Annotatsiya.** Maqolada yosh munosabatlari va uchinchi darajali mahalliy tuzilmalarning ma'lum konlar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi, bu lokal strukturalar rutbali tahlil asosida aniqlangan. Maqolada shuningdek, cho'kindi havzaning neftgazga istiqbolligiga aniqlik kritish uchun tektonik va paleotektonik tahlilning ahamiyati yoritilgan. Ushbu ishda tektodinamik tahlilning alohida holatlariga ta'rif berdik, bizning tasavurda qo'shimcha va qayndaydir darajada tadqiqot o'tkaziladigan hududda bu tadqiqotni, qo'llash imkoniyati asoslangan ba'zi bir aspektlariga to'xtab o'tilgan. Ishning dolzarbliji proqnozlash ishlarining ishonchligini oshirish uchun neft va gaz tuzilmali tutqichlarining shakillanish sharoiti va yoshini aniqlash asosida tarixiy va strukturaviy tahlilning an'anaviy usullarini qayta ko'rib chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Natijada uchinchi rutbadagi antiklinal-tuzilmalar holatiga muvofiq maydonlarning uchta turi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** izlov-razvedka ishlari, neft, gaz, tuzilma-tutqichlar, neogen-to'rtlamchi, bo'r yotqiziqlari, Qorovulbozor, Dengizko'l, ko'tarilma.

**РАНГОВЫЙ ПАЛЕОТЕКТОНИЧЕСКОГО АНАЛИЗ ВОЗРАСТНОГО И  
ПРОСТРАНСТВЕННОГО СООТНОШЕНИЯ ЛОКАЛЬНЫХ СТРУКТУР,  
СФОРМИРОВАННЫХ НА РАЗЛИЧНЫХ ЭТАПАХ МЕЗОЗОЙ-  
КАЙНОЗОЙСКОЙ ИСТОРИИ В ЦЕНТРАЛЬНИ ЧАСТИ БУХАРО-  
ХИВИНСКОГО РЕГИОНА**

*Ахмедов Холходжса Рахматуллаевич*

(PhD) Каршиинский инженерно-экономический институт, Карши, Узбекистан

**Аннотация.** В статье проведён анализ возрастного соотношения и связи выявленных при ранговом анализе локальных структур третьего ранга с известными месторождениями. Также, в статье отражён роль тектонически и палеотектонический анализ для выяснении перспектив нефтегазоносности осадочного бассейна. В настоящей работе нами описаны отдельные положения тектодинамического анализа, затронуты некоторые аспекты этих исследований, которые на наш взгляд служат дополнением, и, в некоторой степени, обоснованием возможности применения её в условиях исследуемой территории. Актуальность работы определяется необходимостью пересмотра традиционных методов историко-структурного анализа, на основе которых определяются условия формирования и возраст структурных ловушек нефти и газа для повышения достоверности прогнозных работ.

В результате показаны три типа площадей, соответствующие положениям антиклинальных структур третьего ранга.

**Ключевые слова:** поисково-разведочных работ, нефть, газ, структур-ловушек, неоген-четвертичное, меловых отложениях, Карабазар, Денгизкуль, поднятий

## RANKING PALEOTECTONIC ANALYSIS OF AGE AND SPATIAL RELATIONSHIP OF LOCAL STRUCTURES FORMED AT DIFFERENT STAGES OF MESOZOIC-CENOZOIC HISTORY IN THE CENTRAL PART OF THE BUKHARO-KHIVA REGION

Akhmedov Kholkhodzha Rakhmatullaevich

(PhD) Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi, Uzbekistan

**Abstract.** The article analyzes the age relationship and the connection of local structures of the third rank identified during the rank analysis with known deposits. Also, the article reflects the role of tectonically and paleotectonic analyzes to determine the prospects for oil and gas content of a sedimentary basin. In this work, we describe certain provisions of tectodynamic analysis, touch upon some aspects of these studies, which in our opinion serve as a complement, and, to some extent, justification for the possibility of using it in conditions study area. The relevance of the work is determined by the need to revise traditional methods of historical and structural analysis, on the basis of which the formation conditions and age of structural oil and gas traps are determined to increase the reliability of forecasting work.

As a result, three types of areas are shown, corresponding to the positions of anticlinal structures of the third rank.

**Keywords:** prospecting and exploration, oil, gas, trap structures, Neogene-Quaternary, Cretaceous deposits, Karaulbazar, Dengizkul, uplifts

**Kirish.** Neft va gaz tabiiy tutqich-larining hosil bo‘lish vaqtida ma’lumot-

ga ega bo‘lish neft va gaz izlov razvedka ishlarini yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash uchun

muhim ahamiyat kasb etadi. A.X.Nugmanov tomonidan Buxoro-Xiva regioni bo'yicha aniqlangan konlarni yura vaqtida yuzaga kelgan tutqichlar bilan bog'liqlik qonuniyati aniqlangan bo'lib, bu tutqichlar mezozoy-kaynozoy rivojlanishining navbatdagi bos-qichlarida uzlukli (vaqt-vaqt bilan) rivojlangan. [1]. A.X.Nugmanov neogen-to'rtlamchi davrda hosil bo'lgan antiklinal burmalar neftgazga noistiqbolli deb hisoblaydi. Buday xulossaga kelish neogen-to'rtlamchi davrdagi tutqichlar Amudaryo sedimentatsion havzasida regional migratsiyasi tugagandan keyin hosil bo'lganligi bilan bog'liq [1].


Neft va gaz uyumlarining hosil bo'lish vaqt haqidagi bilimlar yangi konlarni izlash va razvedka qilishning oqilona metodikasini

ishlab chiqish va o'rganiladigan regionda yangi hududlarni istiqbolligini obyektiv baholash imkonini beradi [10].

**Adabiyot tahlili va metodlar.** Cho'kindi havzasini neftgazga istiqbolligini aniqlashda tektonik va paleotektonik tahlil yetakchi ahamiyat kasb etadi [9].

Buxoro-Xiva neftgazli regionida quduqlar bo'yicha litologik-stratigrafik ma'lumotlarni tahlili asosida birinchi rutbada bir-biriga genetik yaqin uchta ritm o'rnatilgan.

Neogen-to'rtlamchi davrda shimoliy-sharqiyo yo'nalishda tuzilmalar aniq namoyon bo'lgan bo'lib, ular asosan shimoliy-g'arbiy qismida yaqqol ko'rindi. 3-rasmida ustma-ust joylashgan sxemalar tahlili paleogenda shakllangan ko'pgina lokal tuzilmalar neogen-to'rtlamchi davrda merosiy




**1-rasm. Yotqiziqlar qalinligi ma'lumotlari asosida aniqlangan 3-rutba neogen-to'rtlamchi davr lokal tuzilmalari (A.X. Nugmanovning materiallaridan foydalanib R.A. Umurzakov va X.R. Ahmedovlar tomonidan tuzilgan, 2023).**

rivojlanishni davom ettirganligini ko‘rsatadi. Bu tuzilmalarga quyidagi antiklinal tuzilmalar mansub: Gazli, Djunus, Achchikkum, Kemirek, Atbakar, Karauzbek, Kagan, Kumrabat, Kokchi, Saritash, Yulduzkak, Janubiy Yulduzkak, Beshtepa, G‘arbiy Kokchi, Yangikuduk, Shirinbulak, Akkum, Janubiy Mubarak, Samantepa, Djilikoya, Isakbobo, Pomuk, Maymanak, Yangi Mirishkor, Girsan va Shimoliy Girsan, Kaptal [2].

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, keyingi davrlarda rivojlanmagan paleogenning ayrim tuzilmalari ajratilgan bo‘lib, ular

Karakul, Orta Kuduk, Kishtuvan, Zafar, Agachayak tuzilmalari hisoblanadi. Shu bilan birga, neogen-to‘rtlamchi davrlarda yangi strukturalar shakllangan, jumladan: Uzunshor, Polvonkuduk, Okburun, Uzun Shavm, Ispanli, Kok Derevo, Alvatl, Karayulgund, Elabad, Yangi Kirkkulach [2].


Bo‘r yotqiziqlari keltirilgan tuzilmaviy rasmda ma’lum darajada paleogen yotqiziqlari tuzilmalarini aks ettiradi. Kogon, Karaulbozor va Dengizko‘l ko‘tarilmalar guruhi tuzilmaviy elementlarining rivojlanishida umumiyl o‘xshashlik mavjud (4-rasm). 5 va 6-rasmlarda kechki



**2-rasm. Yotqiziqlar qalinligi ma’lumotlari bo‘yicha aniqlangan 3-rutba paleogen davr lokal tuzilmalar (A.X.Nugmanovning materiallardan foydalanib R.A.Umurzakov, X.R.Axmedovlar tomonidan tuzilgan, 2023).**

yura va erta-o'rta yura davrlarida shakllangan lokal tuzilmalar xaritasi keltirilgan.

Erta-o'rta yura davrida shakllangan lokal tuzilmalarga quyidagilar kiradi: hudduning shimoliy-g'arbiy qismida Gazli ko'tarilmasi, Atbakar, Shirinquduq, Karakir, Shimoliy Donbay, Sharqi Karauzbek, Baratquduq, Djangul, Kapakutan, Qalandar, Nagartepa, Shaudir, Shurtepa, Kumsultan, Shirinkuduk, Zamonbobo, Kuvachili, Polvonkuduk, Isokbobo, Sarikum, Ispanli, Yangi Darbaza, Karim-Darbaza, Rasulkuduk, Maymanak, Okburun, Kokdumalak, Alan, Djapartepa, Kultak, Denav, Elabad.




**4-rasm. Neogen-to'rtlamchi daryo tuzilmalarini (ko'k rangda) bo'r davri tuzilmalari bilan ustma-ust tushgan sxema-xaritasi.**

Bulardan Shorkuduk, Shim.Donbay, Sharq.Karauzbek, Baratkuduk, Djangul, Kumsultan, Ispanli, Karim-Darbaza, Maymanak, Djilkum, (Rasulkuduk bilan bir xil), Djapartepa, Alan, Kultak, Elabad tuzilmalari o'zining rivojlanishini kechki

yurada davom etirgan (7-rasm) [3].


Umuman olganda kechki yura davrida ko'pgina tuzilmalar merosiy rivojlangan bo'lib Atbakar, Zamonbobo, Kuvachili, Karakutan, Polvonkuduk, Isakbobo tuzilmalari bundan mustasno.



**5-rasm. Yotqizqlarning qalinligi ma'lumotlari bo'yicha dekompozitsiya metodi bilan aniqlangan 3-rutbadagi kechki yura lokal strukturalari (A.X.Nugmanovning materiallardan foydalanib R.A.Umurzakov, X.R.Axmedovlar tomonidan tuzilgan, 2023).**

Ushbu sxemalar tahlili quyidagi xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Paleogen va neogen-to'rtlamchi davrlarning strukturaviy rasmida kechki yura davridagi tektonik harakatlar va deformatsiyalar shimoliy-g'arbdan shimoliy-sharq yo'nallishiga qarab sezilarli o'zgarishlar kuza tiladi. Buning natijasida paleogen davrida quyidagi tuzilmalar merosiy ravishda rivojlangan: Shorkuduk, Shapatau, Kumsultan, Maymanak, Djapartepa, Putli,

Kapali. Hududning shimoliy-g'arbida Gazli ko'tarilmasining kichik shakli namoyon bo'ladi, bu struktura erta-o'rta yura davrida rivojiana boshlagan (5, 6-rasmlar) va kechki yura, paleogen va neogen-to'rtlamchi davrlarda o'z rivojlanishini davom ettirgan.




*6-rasm. Yotqiziqlarning qalinligi ma'lumotlari asosida dekompozitsiya metodi bilan aniqlangan 3-rutbadagi erta-o'rta yura lokal strukturalari (A.X. Nugmanovning materiallaridan foydalanib R.A. Umurzakov va X.R. Ahmedovlar tomonidan tuzilgan, 2023).*

**Xulosa.** Shorkuduk, Shimoliy Donbay, Shapatau (Kokchi), Darvazakum, Maymanak, Kultak, Elabad kabi kechki yura davrida shakllangan lokal tuzilmalar neogen-to'rtlamchi davrda merosiy rivojlangan.

Paleogen va neogen-to'rtlamchi davrlarning tuzilmali rasmlarini erta-o'rta yura davrining tuzilmalari bilan ustma-ust joylashtirib taqqoslash natijasida lokal tuzilmalar ikkita asosiy guruhga ajratilgan – merosiy va qayta shakllangan guruhlar.

Ushbu vazifa, A.X. Nugmanov tomonidan ilgari surilgan, merosiy va davomiy rivoj-langan tuzilmalar mahsuldor bo'lishi mumkin, neogen-to'rtlamchi davrda hosil bo'lgan tuzilmalarda UV mahsulotlari bo'lmashligi mumkin, degan xulosasini



*7-rasm. Kechki yura 3-rutbadagi lokal tuzilmalarining (ko'k rangda) erta-o'rta yura lokal tuzilmalari bilan taqqoslash sxema-xaritasi*

tekshirish zarurati tufayli amalga oshirildi. A.X. Nugmanovga ko'ra, neogen davrigacha barcha UV uyumlari shakllanib bo'lgan (A.X. Nugmanov, 2010). Yuqorida tasvirlangan rasmlar shuni ko'rsatadiki, quyi-o'rta yura yotqiziqlarida aniqlangan asosiy shimoliy-g'arbiy tuzilmalar paleogen tuzilmalariga mos keladi [5]. Bular quyidagi tuzilmalardir: Shorkuduk, Shimoliy Donbay, Shimoliy Karauzbek, Karauzbek, Baratkuduk (qisman), Kushrabat, Shirinkuduk, Ortakuduk (qisman),

Kumsultan, Rasulkuduk, Maymanak, Isokbobo, Kokdumalak (Agachalak), Pamuk, Kultak.

Neogen-to'rtlamchi davr tuzilmalari ning sxemasi bilan taqqoslaganda, Chorju pog'onasida Shirinkuduk, Kuvachili, Polvonkuduk, Djillikkiya, Isokbobo, Okburun, Pamuk, Kultak, Maymanak, Janubiy-G'arbiy Yulduzkak strukturalari aniq ajralib turadi. Shuningdek, Atbakar, Kogon tuzilmalar guruhi, Yulduzkak, Ispanli-Akkum, G'arbiy Shumak-Chuvama kabi alohida ko'tarilmalar ham namoyon bo'lgan.

Neftgaz geologiyasi uchun hududni paleotektonik rayonlashtirish va tuzilmalar hosil bo'lish yoshini aniqlash muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, neft va gaz tutqichlari mavjud bo'lgan hududlarda katta qiziqish uyg'otadi [4, 6]. 5 va 7-rasmlarda mezozoy-kaynozoy tarixining barcha davrlari bo'yicha quyi-o'rta yura davri ustki yuzasi bo'yicha lokal antiklinal tuzilmalar holatining sxema-xaritasi keltirilgan.

Bu yerda uchinchi rutbaga mansub antiklinal tuzilmalarning uchta turi ko'r-satilgan.

Birinchi turga erta-o'rta yura davrida hosil bo'lgan va uzoq muddat davomida uzluksiz rivojlangan strukturalar kiradi. Bular quyidagi maydonlar: Shorkuduk,

Atbakar, Shimoliy Donbay, Karauzbek, Shirinkuduk, Kuvachili, Kumrabat, Yulduzkak, Yangikuduk, Polvonkuduk, Djillikoya, Isokbobo, Okburun, Maymanak, Kultak, Elabad.

Ikkinci turga erta-o'rta yura davrida hosil bo'lgan va paleogen boshlanishigacha uzluksiz rivojlangan uchinchi rutbaga mansub lokal tuzilmalari kiradi: Mullali, Karakul, Yamandjar, Kumsultan, Shursay, Kirkchashma, Denav.

Uchinchi turga neogen-to'rtlamchi davrda hosil bo'lgan, quyi-o'rta yura davrinining uchinchi rutbali lokal tuzilmalariga mansub maydonlar kiradi (5, 7-rasmlar). Quyi-o'rta yura davrida turli vaqtarda shakllangan maydonlar quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi. Birinchi turdag'i maydonlar ikkita yo'nalishda, janubiy-sharqdan shimoliy-g'arbg'a cho'zilgan – biri Chorju pog'onasi chegarasida, ikkinchisi Buxoro pog'onasi chegarasida cho'zilgan. Bu maydonlar oralig'ida ikkinchi turdag'i maydonlar tarqalgan.

Hududning shimoliy-g'arbiy qismida ikkinchi turdag'i maydonlar shimoliy-sharqiy yo'nalishga ega. Neogen-to'rtlamchi davrda yangi hosil bo'lgan tuzilmalar hududning sharqiy va shimoliy-sharqiy qismlarida tarqalgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Нугманов А.Х. Закономерности формирования ловушек и залежей нефти и газа и перспективы нефтегазоносности северного борта Амударинской синеклизы. Диссертация на соискание ученой степени доктора геолого-минералогических наук. Ташкент, 2010. -238 с.
- Умурзаков Р.А., Ахмедов Х.Р., Тураев Ш.А. Помук майдонининг маҳсулдор горизонтлари тузилиши ва мезозой-кайнозойдаги ривожланиш хусусиятлари // Инновацион технологиялари журнали Карши. 2020. № 4. 9-12 б.

3. Умурзаков Р.А., Ахмедов Х.Р., Тураев Ш.А. Нефтгазга маҳсулдор горизонтлари тузилишининг тарихий хусусиятларини ўрганишда палеотектоник таҳлилни қўллаш / Геологик-қидирув ишларининг замонавий муаммолари ва ривожлантириш истиқболлари. Республикада геология ўқитишининг долзарбумуаммоларива Ер фанлариистикболлари. Республика илмий-амалийянжуманиматериалларитўплами (2020 йил 29 май). Қарши, 2020. - 86-90 бетлар.
4. Нейман В.Б. Теория и методика палеотектонического анализа. Москва: Недра 1984 – 80 с.
5. Нугманов А.Х. О зависимости нефтегазовой продуктивности ловушек от времени их формирования // Узбекский геол. журн. – Ташкент, 1981.-№3. - С. 19-26.
6. Николаев П.Н. Методика тектонодинамического анализа. М.: Недра, 1992. – 295 с.